

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH	10
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
Ma'rupova Gulnoz	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
Муратов Абдулазиз Уктамович	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA	38
Raximov Alisher Ibragimovich	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI	45
BekmurodovAbbos Amiriddinovich	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
Makhambetova Uringul Reimbaevna	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH	55
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI	62
Ergasheva Ma'mura Gayratovna	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
Axmedova Nilufar Shuxratovna	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH	74
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES	82
Farida Nishanova	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	87
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	92
Iskandar Yunusov	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	98
Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich	
KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	108
Rahimov Qodir Ergashevich	
НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	115
Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI	124
Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	128
Raxmonova Nigina Anvarovna	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA	132
Farida Nishanova	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI	137
Inobatov Abror Boshlarovich	
REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI.....	144
Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
ОБЕСПЕЧЕНИЕ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИРМЕННЫХ МАГАЗИНОВ «SAG EXPRESS»)	151
Мусаева Шоира Азимовна	
O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI	161
Djumayev Zayniddin Axmedovich	
O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES O'RNINI OSHIRISHNING STATISTIK USULLARDAGI TAHLILI.....	166
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARNI REAL VAQT REJIMIDA VIZUALIZATSIYA QILISH UCHUN ADAPTIVE M4 GEOMETRIK-PERSEPTUAL AGREGATSIYA ALGORITMI.....	170
Nuraliyev Faxriddin, Hotamov Farhod, Muxamedjonova Zuxra	
АЛГОРИТМ ОПТИМИЗАЦИИ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ В РАЗВЕТВЛЁННЫХ ПАССИВНЫХ ОПТИЧЕСКИХ СЕТЯХ (PON).....	175
Киямов Рахматулло Рузиевич	
MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI ORQALI HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH.....	180
Xolmurotova Diyoraxon, Xoliyorova Shoxista	
OZIQ-OVQAT XAVSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT STRATEGIK ZAXIRALARINING O'RNINI	184
Bazarov Nazirjon, Normurodov Alibek	
O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA UNI BARTARAF ETISHDA TADBIRKORLIKNING ROLI: IQTISODIY TAHLIL VA TENDENSIYALAR.....	190
Uzakov Sh. Sh.	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	196
Raximov Faxriddin Shavkatovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ И ПРИЧИНЫ ИХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ	201
Петр Ким	



УЧЁТ ВЫБЫТИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ОРГАНИЗАЦИИ.....	207
Туракулов Шахриёр, Пашаходжаева Дилдора HUDUDIY IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI KO'P OMILLI REGRESSION TAHLIL ASOSIDA MIQDORIY BAHOLASH (BUXORO VILOYATI TUMANLARI MISOLIDA).....	213
Ergashev Sherali Erali o'g'li NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA QISQA MUDDATLI TA'SIRINI EMPIRIK BAHOLASH	217
Djumonov Dilshod Safaroliyevich O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI	222
Djumayev Zayniddin Axmedovich JIZZAX VILOYATI KICHIK BIZNES TIZIMINING EMPIRIK MA'LUMOTLAR BAZASI VA TAVSIFIY STATISTIK TAHLILI	227
Atamuratova Gulrux Muzafarovna KIMYO SANOATI KORXONALARIDA DIVERSIFIKATSIYA SAMARADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH VA 2032-YILGACHA PROGNOZLASH.....	232
Razikov Otabek Rustamovich ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ РАЗВОЛКНЕНИЯ ПУТАНКИ	240
Одилхонова Нафиса, Атаханов Авазбек SOLIQ BOSHQARMALARIDA AGILE MENEJMENT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARINING EMPIRIK-STATISTIK TAHLILI	247
Sayfiyev Jasur Ravshanovich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA RAQOBAT MUHITI VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	253
Rizoqulova Elnora Otabek qizi YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY OMILLARI.....	260
Ergashev Erkin Iroqovich QULOQ CHANOG'I VA YUZ YON TASVIRI ASOSIDA SHAXSNI IDENTIFIKATSIYALASH.....	264
Mamatov Narzillo, Samijonov Abdurashid, Abdullaeva Barno, Usarov Jurabek ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ РОТОРНО-УПРАВЛЯЕМЫХ СИСТЕМ (РУС) И ВИНТОВЫХ ЗАБОЙНЫХ ДВИГАТЕЛЕЙ (ВЗД) ПРИ БУРЕНИИ НЕФТЯНЫХ И ГАЗОВЫХ	271
Жахонгир Эркин угли Абдиганиев, Шерали Халлокович Умедов KO'KRAK BEZI SARATONINING MOLEKULYAR SUBTIPLARINI PROGNOZ QILISHDA MULTIPARAMETRIK MRT VA SUN'IY INTELLEKT MODELLARINING INTEGRATSIYASI	282
Sulaymanov Dilshod, Alikariyev Isroiljon ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH ("URGUT" ERKIN IQTISODIY ZONASI MISOLIDA)	288
Yazdanov Mirjaxon G'ayrat o'g'li IQLIM O'ZGARISHLARINING HUDUD BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH REYTINGI: NAZARIY-USLUBIY YONDASHUV	294
Madenova Elmira Nizamatdinovna TIJORAT BANKLARI FOYDASINI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY JIHATLARI	300
Turanov M. Sh. BELAZ YUK MASHINALARINING SHARLI O'Q DETALLARDAGI KUCHLANISH KONSENTRATSIYASINING TAHLILI VA MUSTANKAMLIKKA TA'SIRI.....	306
Yusupov Abdulaziz, Pushanov Akbar, Jo'raqulov Ixtiyor, Jaxonov Shoxrux ОЧИСТИТЕЛЬНАЯ СЕКЦИЯ ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНОГО АГРЕГАТА С НАКЛОННЫМИ КОЛКАМИ НА КОЛКОВЫХ БАРАБАНАХ.....	311
Эргашев Рахимжон, Мавлянов Айбек, Росулов Рузимурод SUV-SUV TIZIMIDA ISSIQLIK ALMASHINISH JARAYONINI JADALLASHTIRISH	316
Karabayev Asatilla, Yo'liiyev Shukurali, Abduqayumov Jamoliddin	



HUDUDLARDA AGROTURISTIK SALOHİYATNI BAHOLASH USLUBI	323
Qodirov Azizjon, Rustamov Adhamjon, Jumayeva Ozoda	
ROI-WEIGHTED PRIMARY FRAME FILTERING FOR EFFICIENT DEEP VIDEO SURVEILLANCE	329
Shohruh Begmatov, Mukhriddin Arabboev, Akhram Nishanov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	340
Sharipova Munojot Murodullayevna	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДОХОДОВ И РАСХОДОВ ПО ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ	348
Баходиров Азизжон Баходирович, Пашаходжаева Дилдора Джабборхоновна	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	353
Isomuxamedov Akbarjon Bahodir o'g'li	
BUYUK BRITANIYADA BILVOSITA SOLIQLAR TIZIMINING EVOLYUTSIYASI	359
Malika Sharipova Maxmudjon qizi	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING BESH BOSQICHLI REYTING SHKALASI: METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY TATBIQ ("O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJ MISOLIDA)	367
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
«ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ КОНЦЕПЦИИ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В МИРОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ МЫСЛИ»	372
Ким Т.В.	
XUSUSIY UNIVERSITETLARNI IQTISODIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ICHKI MANBALARI: BALANS TARKIBI VA AKTIVLARNI KAPITALLASHTIRISH TAHLILI	378
Rahimov Sardor Uralovich	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ	383
Кадыров Арслан, Пашаходжаева Дилдора	
RAQAMLI BANK ISHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, INNOVATSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	388
Shokirov Sardor Inotdullo o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MULTIMODAL TRANSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	393
Malikova Shoira Baxtiyorovna	
BUXORO VILOYATI OZIQ-OVQAT SANOATINI SIRKULAR IQTISODIYOT ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ...	398
Kudratov Muhammad Rustamovich	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORINING TASHKILYI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI	402
Abdumalikov Shoxjahan Jaloliddin o'g'li	
BIZNES TAHLILIDA KATTA MA'LUMOTLAR VA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	407
Umarov Abbos Nuriddin o'g'li	
MINTAQA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	414
Oramov Jahongir, Muxitdinov Xudayar	
POSE-AWARE FACE SELECTION FOR IMPROVING FACE IDENTIFICATION RELIABILITY	419
Shohruh Begmatov	
O'ZBEKISTONDA EKSPORT UCHUN MEVA-SABZAVOT YETISHTIRISH VA UNI SUG'URTALASHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH.....	433
Kalenov K.T.	
INNOVATSION MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH ORQALI SUG'URTA FAOLIYATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH.....	438
Ergashev Olim Kenjayevich	



CUSTOMS PROCEDURES AND TRADE FACILITATION CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S CROSS-BORDER TRADE: A POLICY REVIEW.....	444
Khanifakhon Solikhova	
SOLIQ BOSHQARMALARIDA AGILE MENEJMENT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARINING EMPIRIK-STATISTIK TAHLILI	449
Sayfiyev Jasur Ravshanovich	
THE DIGITAL GASTRONOME: HOW TECHNOLOGY CONNECTS TOURISTS, RESTAURANTS, AND THE TECH EMPIRE.....	455
Freshta Qayoumy	
ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ КОНЦЕПЦИИ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В МИРОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ МЫСЛИ.....	462
Т.В. Ким	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI STRATEGIK BOSHQARISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI: SUN'IY INTELLEKT, BIG DATA, LEARNING ANALYTICS VA DATA- DRIVEN GOVERNANCE.....	468
O'ktamova Durдона Baxtiyor qizi	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYAVIY RESURSLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI	474
Tagriyeva Farida Abdugarimovna	
O'ZBEKISTONDA MOSH EKSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH: RCA INDEKSI, QO'SHILGAN QIYMAT VA EKSPORT ZANJIRI TAHLILI.....	479
Islamova Malika Ilyos qizi, Muhammad Ali Hakimovich Saidov	
ФИНТЕХ-РЕШЕНИЯ ДЛЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА: ЦИФРОВЫЕ ПЛАТЕЖИ, КРАУДФАНДИНГ И ДОСТУП К КАПИТАЛУ	485
Ли Д. Э.	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR TO'PLAMIDA ANOMALIYALARNI ANIQLASH UCHUN K-MEANS VA DBSCAN ALGORITMLARINING NAZARIY OPTIMALLASHUV MODELLARI.....	489
Jo'rayev Sherali Umarjonovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR O'RNI.....	497
Puotr Kim	
ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ СВАРКИ МАГНИЕВЫХ СПЛАВОВ	503
Эрматов Зиядулла, Садуллаева Бувалма	
ZINGIBER OFFICINALE ROSC. IN VITRO MADANIYATIDA MIKRORIZOMOGENEZ VA KALLUS REGENERATSIYASINI NANOSTRUKTURALI ELITSITORLASH VA VAQTINCHALIK IMMERSION TIZIMLARI (TIS) YORDAMIDA JADALLASHTIRISHNING MOLEKULYAR-GENETIK VA FIZIOLOGIK ASOSLARI	508
Shamsiddinova Shahrizoda	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA B2B MODELIDAGI BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH: KIMYO SANOATI MISOLIDA TAHLIL	513
Xaydarova Kamola Axinjanovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI PORTFELI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY- METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	518
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich	
FERMER XO'JALIKLARINING XALQARO BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUVI SALOHİYATINING 2032-YILGACHA ISTIQBOL PROGNOZI	524
Tursunqulov G'olibjon Shavkat o'g'li	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	533
Nomozova Qumri Isoyevna	



TURIZM TRANSPORTI LOGISTIKASIDA MENEJMENT TIZIMINING METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA AMALIYOTI	539
Atamurodov Ulug‘bek Nizamkulovich	
INGICHKA BOYITISH FABRIKASI TEXNOGEN CHIQINDILARIDAN VOLFRAMNI KOMBINATSIYALASHGAN GRAVITATSION VA ELEKTROMAGNIT BOYITISH USULLARI YORDAMIDA AJRATIB OLIISH.....	544
Boymurodov Najmiddin Abduqodirovich, Temirov Kamoliddin Abdinazar o‘g‘li	
TURLI TOLA TARKIBLI KOSTYUMBOP MATOLARNING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI TO‘LIQ OMILLI EKSPERIMENT ASOSIDA BAHOLASH	550
M. R. Atanasov, Daniyor Kholmurodovich Sobirov	
BOSHQARUV TAHLILI ASOSIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING AMALIY JIHATLARI.....	554
Yahyoyev To‘lqin Ismatulla o‘g‘li	
TIJORAT BANKLARINING LIKVIDLILIGINI TA‘MINLASH MASALALARI	558
Tojiyev Rahmatilla Rahmonovich	
O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	563
Mamatov Baxodir, Raupov Akbar	
STRENGTHENING STATE FINANCIAL ASSISTANCE TO FOSTER ENTREPRENEURSHIP AMONG LOW-INCOME FAMILIES.....	570
Erejepov Kuwanishbay Jienbay uli	
BOG‘DORCHILIK XO‘JALIKLARIDA INVESTITSIYALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINING DETERMINANTLARI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA.....	575
Jalilov Shohruh Zafar o‘g‘li	
КОЛИЧЕСТВЕННАЯ ОЦЕНКА И РЕАЛИЗАЦИЯ РЕЗЕРВОВ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОРНО-ХИМИЧЕСКОГО ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ АО «ДЕХКАНАБАДСКИЙ ЗАВОД КАЛИЙНЫХ УДОБРЕНИЙ»)	581
Мирсаидова Шахноза Арсланбековна	
MIKRO XIZMAT KO‘RSATUVCHILARNI RASMIYLASHTIRISH VA MILLIY PLATFORMAGA INTEGRATSIYALASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI	588
Muzaffarov Akmal Axmadovich	



MIKRO XIZMAT KO'RSATUVCHILARNI RASMIYLASHTIRISH VA MILLIY PLATFORMAGA INTEGRATSIYALASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMI

Muzaffarov Akmal Axmadovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: akmailuz@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada mustaqil turistlarga bevosita xizmat ko'rsatuvchi mikro provayderlarni rasmiylashtirish va ularni mavjud milliy raqamli platformaga integratsiyalashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ishlab chiqilgan. Formalizatsiya bo'shlig'i bitim xarajatlari nazariyasi, institutsional iqtisodiyot va axborot assimetriyasi nuqtai nazaridan izohlanib, uning o'zini-o'zi kuchaytiruvchi tabiati ochib berilgan. Mexanizm besh toifadagi mikro provayderni qamrab oluvchi obyekt hamda soddalashtirilgan rasmiylashtirish, sifat verifikatsiyasi va platformaga modul sifatida ulanishdan iborat uch bosqichli ketma-ketlik tarzida shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil turizm; rasmiylashtirish; mikro provayder; milliy platforma; bitim xarajatlari; institutsional bo'shliq; sof naf; ekspert baholash; Kendall koeffitsienti.

Аннотация. В статье разработан организационно-экономический механизм, направленный на формализацию микропровайдеров, непосредственно обслуживающих самостоятельных туристов, и их интеграцию в существующую национальную цифровую платформу. Пробел формализации объясняется с позиций теории транзакционных издержек, институциональной экономики и информационной асимметрии, а также раскрывается его самоподдерживающийся характер. Механизм сформирован в виде трехэтапной последовательности, включающей объект, охватывающий пять категорий микропровайдеров, упрощенную процедуру формализации, верификацию качества и подключение к платформе в качестве модуля.

Ключевые слова: самостоятельный туризм; формализация; микропровайдер; национальная платформа; транзакционные издержки; институциональный разрыв; чистая выгода; экспертная оценка; коэффициент Кендалла.

Abstract. The article develops an organizational and economic mechanism aimed at formalizing micro-providers that directly serve independent tourists and integrating them into the existing national digital platform. The formalization gap is explained through the perspectives of transaction cost theory, institutional economics, and information asymmetry, revealing its self-reinforcing nature. The proposed mechanism is structured as a three-stage sequence consisting of an object covering five categories of micro-providers, simplified formalization procedures, quality verification, and modular integration into the platform.

Keywords: independent tourism; formalization; micro-provider; national platform; transaction costs; institutional gap; net benefit; expert assessment; Kendall's coefficient.

KIRISH

O'zbekistonga kiruvchi turistik oqimning eng katta va iqtisodiy jihatdan eng samarali qismini sayohatini vositachilarsiz tashkil etadigan mustaqil turistlar tashkil etadi. Biroq bu segmentning salohiyati bir qator institutsional, infratuzilmaviy va raqamli to'siqlar tufayli to'liq ro'yobga chiqmayapti. Ushbu to'siqlar orasida eng chuquri va hal etilishi shoshilinch — mustaqil turistga bevosita xizmat ko'rsatuvchi mayda subyektlarning sezilarli qismi rasmiy iqtisodiyotdan tashqarida qolayotgani, ya'ni formalizatsiya bo'shlig'idir. Aynan shu bo'shliq mustaqil oqimni oshirishning birlamchi sharti bo'lgan ishonchli va kuzatiladigan taklif bazasini shakllantirishga to'sqinlik qiladi: ishonchli taklif bo'lmasa, turistni jalb etuvchi har qanday rag'bat ham samarasiz qoladi. Shu sababli mustaqil turistlar oqimini barqaror oshirish, avvalo, mikro xizmat ko'rsatuvchilarni rasmiylashtirish va ularni milliy platformaga integratsiyalashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mayda subyektlarni rasmiylashtirish zarurati, eng avvalo, mustaqil turist toifasining iqtisodiyotdagi alohida o'rnini bilan bog'liq. Mustaqil turistlarni iqtisodiy samaradorlik bo'yicha segmentlash eng ko'p sof iqtisodiy



hissa qoldiruvchi guruh aynan qo'shni va MDH davlatlaridan keluvchi yirik hajmli mustaqil turistlar ekanini ko'rsatadi. Bu guruhning xarajatlari turoperator paketi orqali emas, balki bevosita oilaviy mehmonxonalar, yakka gidlar, milliy taom va hunarmandchilik xizmatlariga yo'naltirilgani uchun uning hududdan sizib chiqishi past, multiplikativ samarasi esa yuqori bo'ladi. Biroq shu xarajatlarning katta qismi naqd pulga asoslangan, ro'yxatdan o'tmagan va rasmiy hisobda aks etmaydigan kanallar orqali o'tadi. Natijada mustaqil turistlarning real iqtisodiy hissasi yuqori bo'lsa-da, uning rasman o'lchanadigan, soliqqa tortiladigan va qayta investitsiyaga yo'naltiriladigan qismi past bo'lib qoladi. Demak, mayda subyektlarni rasmiylashtirish nafaqat ma'muriy, balki bevosita iqtisodiy vazifa bo'lib, u "ko'rinmas" qiymatni o'lchanadigan va boshqariladigan qiymatga aylantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuning o'rganilganlik darajasi shuni ko'rsatadiki, mustaqil turizm, ulashuv iqtisodiyoti va raqamli platformalar bo'yicha xorijiy adabiyotda boy nazariy va empirik baza shakllangan. Tadqiqotning nazariy o'zaklarini institutsional iqtisodiyot maktabi vakillari yaratgan: R. Coase [1] asos solgan va O. Williamson [2] rivojlantirgan bitim xarajatlari nazariyasi har qanday bozor almashuvi qidiruv, kelishuv va nazorat xarajatlari bilan bog'liqligini, yuqori xarajatlari esa almashuvni norasmiylik tomon surishini asoslaydi; D. North [3] institutlarni noaniqlikni kamaytiruvchi mexanizm sifatida talqin qiladi; G. Akerlof [4] esa sifat haqidagi axborot assimetriyasi bozorni past sifat tomon suradigan "limonlar" muammosini ochib bergan. Muallif ushbu nazariy yondashuvlarni mustaqil turizmning formalizatsiya bo'shlig'ini izohlovchi yagona tahliliy asos sifatida qabul qiladi va ularga to'liq tayanadi; ayni paytda mazkur nazariyalar umumiy iqtisodiy qonuniyatlarni ifodalab, mayda turizm provayderlarini rasmiylashtirishning aniq mexanizmiga bevosita yo'naltirilmaganini e'tirof etadi.

Turizmni raqamlashtirish va ulashuv iqtisodiyoti yo'nalishida ham salmoqli adabiyot to'plangan. D. Buhalis va R. Law [5] axborot texnologiyalari turist bilan mahalliy xizmat ko'rsatuvchini bevosita bog'lab, an'anaviy vositachilik zanjirini qisqartirishini ko'rsatib bergan; G. Zervas va hammualliflari [6] Airbnb misolida platformalardagi obro'-reyting tizimlari ishonchni mustahkamlab, ilgari bozorga chiqa olmagan mayda provayderlarga raqobat imkonini berishini empirik tasdiqlagan; C. Bianchi [7] mustaqil turist standart xizmatdan ko'ra mahalliy, noyob va an'anaviy tajribani afzal ko'rishini aniqlagan; Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) [10] esa mayda turizm subyektlarini qo'llab-quvvatlash va sohani raqamlashtirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Muallif ushbu tadqiqotlar xulosalarini ma'qullaydi va ularni mexanizmning empirik tayanchi sifatida ishga soladi; biroq sanab o'tilgan ishlar asosan rivojlangan bozorlarga taalluqli bo'lib, norasmiy mikro provayderlarni rasmiylashtirish va ularni mavjud milliy platformaga modul sifatida ulash masalasini alohida ko'rib chiqmaganini ta'kidlaydi.

O'zbekiston tadqiqotchilari milliy va hududiy darajadagi masalalarni chuqur yoritgan. B.Sh. Safarov [8] milliy turizm xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqqan; B.N. Navruz-Zoda [9] turistik hudud raqobatbardoshligining omillarini tahlil qilgan; N.S. Ibragimov [11] esa turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini asoslab bergan. Muallif mahalliy olimlarning milliy turizmni rivojlantirish va hududiy raqobatbardoshlikni oshirishga qo'shgan hissasini yuqori baholaydi hamda o'z tadqiqotini ularning izlanishlarining mantiqiy davomi sifatida ko'radi. Shu bilan birga, mazkur ishlar asosan makro va hududiy darajaga qaratilib, mustaqil turistga bevosita xizmat ko'rsatuvchi mikro provayderlarni rasmiylashtirishning aniq, bosqichli mexanizmi darajasiga tushmaganini qayd etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy asosini iqtisodiy nazariyaning bir necha yo'nalishi tashkil etadi. Bitim xarajatlari nazariyasiga ko'ra, har qanday bozor almashuvi qidiruv, axborot, kelishuv va shartnoma ijrosini nazorat qilish bilan bog'liq xarajatlarni keltirib chiqaradi [1]. Mustaqil turizmga turist ko'p sonli va tarqoq mayda provayderlarni o'zi qidirib topishi, ularning sifatini baholashi hamda bevosita kelishishi zarurligi sababli bu xarajatlari ayniqsa yuqori bo'ladi, yuqori bitim xarajatlari esa almashuvni norasmiylik tomon suradi [2]. Institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan, rasmiy qoidalar va norasmiy normalar ko'rinishidagi institutlar noaniqlikni kamaytiradi va almashuvni tartibga soladi; institutlar zaif yoki mavjud bo'lmaganda esa almashuv xarajatlari ortib, uning hajmi qisqaradi [3]. Bundan tashqari, mustaqil turist xizmat sifatini oldindan to'liq bilolmaydi; bunday sifat noaniqligi sharoitida bozor past sifatli xizmatlar tomon siljishi mumkin [4]. Demak, mayda provayderlarning yuqori norasmiyligi va sifat to'g'risidagi axborot assimetriyasi institutsional bo'shliqning ko'rinishidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqil turizmning rasmiylashtirish bo'shlig'i tasodifiy emas, balki o'zini o'zi kuchaytiruvchi tuzoqqa ega.

Ro'yxatdan o'tmagan mayda provayder na imtiyozli kredit, na davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlovidan foydalana oladi, chunki bu rag'batlar asosan rasman ro'yxatdan o'tgan subyektlarga yo'naltirilgan. Mablag' yetishmagani uchun provayder xizmatini sifat talablariga yetkaza olmaydi, sifati past bo'lgani sababli esa rasmiy maqom va rag'batlardan baribir chetda qoladi. Shu tariqa mayda subyekt doimiy kam investitsiya va norasmiylik holatida ushlanib qoladi. Bundan tashqari, rasmiylashtirish soliq va hisobot yukini olib keladi, naqd muomala esa norasmiy qolishni osonlashtiradi; natijada ko'plab provayderlar uchun rasmiy maydonga chiqishning bevosita xarajati uning afzalliklaridan ko'proqdek tuyuladi. Bu tuzoqni faqat maxsus ishlab chiqilgan mexanizm — rasmiylashtirish xarajatini keskin kamaytirish va uning evaziga aniq hamda tezkor naf taklif qilish orqali uzish mumkin.

Taklif etilayotgan mexanizmning muhim jihati shundaki, u butunlay yangi raqamli platforma yaratishni ko'zda tutmaydi. Aksincha, uning vazifasi norasmiy mikro provayderlarni rasmiylashtirib, ularni mamlakatda allaqachon mavjud milliy raqamli platformaga modul sifatida ulashdan iborat. Bunday yondashuv bir necha jihatdan maqsadga muvofiq. Birinchidan, u mavjud infratuzilmaga muqobil yangi tizim qurishdan voz kechib, takroriy xarajatlardan saqlaydi. Ikkinchidan, mavjud platforma allaqachon ma'lum auditoriya va ishonchga ega bo'lgani uchun unga ulangan provayder talabga tezroq chiqadi. Uchinchidan, modul shaklidagi integratsiya ko'p sonli tarqoq provayderlarni ma'muriy xarajatlarning mutanosib o'sishsiz bosqichma-bosqich qamrab olish imkonini beradi. Onlayn platformalar mustaqil turistni mahalliy xizmat ko'rsatuvchi bilan bevosita bog'lab, an'anaviy vositachilik zanjirini qisqartiradi [5], platformalardagi reyting va sharhlar tizimi esa ishonchni mustahkamlab, ilgari bozorga chiqa olmagan mayda xizmatlarga raqobat imkonini beradi [6].

Mexanizmning ta'sir obyekti bir jinsli emas: mustaqil turistga xizmat ko'rsatuvchi mayda provayderlar faoliyat turi, rasmiylashtirish darajasi va talab bilan bog'lanish usuli bo'yicha farqlanadi. Mustaqil turist sayohatdan mahalliy, noyob va an'anaviy bo'lmagan tajribani izlagani uchun standart mehmonxona xizmatidan ko'ra milliy taom, hunarmandchilik va etnomadaniy yo'nalishlarga ko'proq qiziqadi [7]. Shu talab tuzilmasidan kelib chiqib, mikro provayderlar besh toifaga ajratildi: yakka gidlar; gastronomiya xizmatlari (uy oshxonalari, oilaviy ovqatlanish); hunarmandchilik va madaniyat yo'nalishi; etno-tajriba xizmatlari (mahalliy oilada yashash); hamda amaliy mikro xizmatlar (xususiy transport, transfer). O'zbekistonning boy gastronomik, hunarmandchilik va etnomadaniy merosi ushbu toifadagi xizmatlarni ayniqsa dolzarb qiladi va ularning rivoji bevosita mahalliy mikro tadbirkorlik hamda an'anaviy kasb-hunarlarini jonlantiradi. Toifalar, ularning namunaviy vakillari, hozirgi rasmiylashtirish holati va platformadagi mos moduli 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval
Mustaqil turistga xizmat ko'rsatuvchi mikro provayderlar toifalari

Provayder toifasi	Namunaviy xizmat ko'rsatuvchilar	Rasmiylashtirish holati	Platforma moduli
Yakka gidlar	Mahalliy gidlar, marshrut yetakchilari	Asosan norasmiy / yakka	Gid xizmatlari moduli
Gastronomiya	Uy oshxonalari, oilaviy ovqatlanish, taom ustaxonalari	Asosan norasmiy	Gastronomiya moduli
Hunarmandchilik–madaniyat	Hunarmandlar ustaxonalari, mahalliy mahsulot ishlab chiqaruvchilar	Qisman rasmiy	Hunarmandchilik moduli
Etno-tajriba	Mahalliy oilada yashash, an'anaviy turmush bilan tanishtirish	Norasmiy	Etno-tajriba moduli
Amaliy mikro xizmatlar	Xususiy transport, transfer, kichik maishiy xizmatlar	Asosan norasmiy	Transport va xizmat moduli


1-jadvaldan ko'rinadiki, toifalarning aksariyati — yakka gidlar, gastronomiya, etno-tajriba va amaliy mikro xizmatlar — hozircha asosan norasmiy yoki tarqoq holatda faoliyat yuritadi, faqat hunarmandchilik yo'nalishigina qisman rasmiylashtirilgan. Bu manzara mexanizmning asosiy ish maydonini aniq belgilaydi: eng ko'p norasmiy provayder to'plangan toifalar birinchi navbatda rasmiylashtirishga muhtoj.

Mexanizmning ushbu uch bosqichli tuzilmasi 1-rasmda umumlashtirilgan.

Uch bosqichning o'zaro bog'liqligi mexanizmning mantiqiy yaxlitligini ta'minlaydi: rasmiylashtirish provayderni rasmiy maydonga olib kiradi, verifikatsiya va reyting unga ishonchni birlashtiradi, platforma esa uni talab bilan bog'laydi. Hech bir bosqich alohida to'liq samara bermaydi — rasmiylashtirilgan, ammo sifati tasdiqlanmagan yoki platformada ko'rinmas provayder turist nazariga tushmaydi; aksincha, sifatli, ammo norasmiy provayder statistik hisob va rag'batlardan tashqarida qoladi. Faqat uchala bosqich birgalikda




ishlaganda tarqoq va norasmiy xizmatlar yagona, ishonchli va kuzatiladigan taklif bazasiga aylanadi. Aynan shu yaxlitlik mexanizmni alohida choralar yig'indisidan ajratib turadi (1-rasm).



1-rasm. Mikro provayderlarni rasmiylashtirish va milliy platformaga integratsiyalash mexanizmining bosqichli tuzilmasi

1-rasmda mexanizmning uch bosqichli tuzilmasi blok-sxema sifatida tasvirlanadi. Kirish qismida norasmiy mikro provayderlar joylashadi; ular ketma-ket uch bosqichdan — soddashtirilgan rasmiylashtirish, verifikatsiya va reyting hamda platformaga modul sifatida ulanishdan o'tadi. Chiqish qismida yagona, ishonchli va kuzatiladigan taklif bazasi hosil bo'lib, undan mustaqil turist bevosita foydalanadi. Pastdagi teskari aloqa chizig'i platformadagi turist sharhlari va reytinglarini provayderga qaytarib, uni xizmat sifatini izchil oshirishga undaydi.

Davlat ilgari norasmiy bo'lgan faoliyatni rasmiy maydonga tortib, kengaygan soliq bazasi, xizmat sifati ustidan nazorat va o'lchanadigan statistikaga ega bo'ladi; bunda turistik faoliyat hududiy rivojlanish uchun daromad manbalarini diversifikatsiya qilish omiliga aylanadi. Mustaqil turist esa ishonchli, ko'rinadigan va sifati kafolatlangan xizmatga ega bo'lib, uni cho'chitadigan axborot assimetriyasi kamayadi. Aynan shunday yondashuv — davlat qo'llab-quvvatlovi bilan bozor tashabbusining uyg'unligi — milliy turizm bozorini rivojlantirish va hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi [8; 9] (2-rasm).



2-rasm. Rasmiylashtirish mexanizmida tomonlar manfaatlarining uyg'unlashuvi

2-rasmda mexanizmida uch tomon manfaatlarining uyg'unlashuvi tasvirlanadi. Sxemaning markazida rasmiylashtirish mexanizmi va milliy platforma joylashib, u uch ishtirokchini bog'laydi. Har bir ishtirokchi mexanizmga muayyan hissa qo'shadi va undan o'z nafini oladi: provayder xizmatini taklif etib, talab hamda rag'batga chiqadi; davlat shart-sharoit va rag'bat yaratib, soliq bazasi hamda sifat nazoratiga ega bo'ladi; turist talabni shakllantirib, ishonchli va sifatli xizmatdan foydalanadi. Markaz bilan har bir ishtirokchi o'rtasidagi ikki tomonlama bog'lanishlar manfaatlarining bir tomonlama emas, balki o'zaro ekanini ko'rsatadi. Aynan shu uch tomonlama muvozanat mexanizmni barqaror va o'zini o'zi qo'llab-quvvatlovchi qiladi, chunki har bir ishtirokchi unda qatnashishdan manfaatdor bo'ladi.

Xorijiy tajriba bilan asoslash. Mexanizmning asosiy elementlari — soddashtirilgan rasmiylashtirish,

sifat reytingi va mavjud platformaga ulash — ilg'or xorijiy tajribada o'z samaradorligini ko'rsatgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining turizm siyosati sharhlarida mayda va o'rta turizm subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda sohani raqamlashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etiladi [10]. Ulashuv iqtisodiyoti tajribasi esa platformalardagi obro'-reyting tizimlari ishonchni mustahkamlab, ilgari bozorga chiqa olmagan mayda provayderlarga an'anaviy xizmat ko'rsatuvchilarga muqobil taklif yaratishini empirik tasdiqlaydi [6]. Demak, mexanizmni tashkil etuvchi har bir element xalqaro amaliyotda alohida sinovdan o'tgan; taklif etilayotgan yondashuvning yangiligi esa ularni yagona, izchil tizimga birlashtirib, O'zbekistonning mavjud milliy platformasiga moslashtirishdadir. Mexanizm elementlarining xalqaro tajriba bilan muvofiqligi 2-jadvalda umumlashtirilgan (2-jadval).

2-jadval

Mexanizm elementlarining ilg'or xorijiy tajriba bilan asoslanishi

Mexanizm elementi	Ilg'or xorijiy tajribadagi tasdig'i	Manba
Soddalashtirilgan rasmiylashtirish	Mayda turizm subyektlarini qo'llab-quvvatlash va sohani raqamlashtirish ko'plab davlatlarda ustuvor yo'nalish	OECD (2024)
Sifat reytingi va verifikatsiya	Platformalardagi obro'-reyting tizimlari ishonchni oshirib, mayda provayderlarga muqobil talab yaratgani empirik isbotlangan	Zervas va boshq. (2017)
Mavjud platformaga modul sifatida ulash	Raqamli platformalar mahalliy xizmatlarni talab bilan bevosita bog'lab, bozorga chiqishini ta'minlaydi	OECD (2024); Zervas va boshq. (2017)

2-jadvaldan ko'rinadiki, mexanizmning uchala asosiy elementi ham xalqaro amaliyotda o'z samarasini ko'rsatgan yechimlarga asoslanadi. Bu mexanizmning faqat nazariy emas, balki amalda isbotlangan tamoyillarga tayanishini ko'rsatadi. Ayni paytda, yondashuv chet el modellarini o'zgarishsiz ko'chirmaydi, balki ularni O'zbekistonning institutsional va raqamli sharoitiga moslashtiradi: yangi platforma qurish o'rniga mavjud milliy platformaga modul ulanadi, rasmiylashtirish esa mahalliy mikro provayderlar xususiyatidan kelib chiqib soddalashtiriladi.

Ekspert baholash natijalari. Mexanizmning xalqaro tajriba bilan asoslangani uning O'zbekiston sharoitida ham samarali bo'lishini o'z-o'zidan kafolatlamagani uchun, uning mahalliy qo'llanilishi qo'shimcha ravishda ekspert baholash orqali tekshirildi. Baholashda turli sohalarni qamrab oluvchi to'qqiz nafar mutaxassis — turizm iqtisodiyoti olimlari, hududiy turizm boshqaruvi xodimlari hamda raqamli xizmatlar, turizm amaliyoti va soliq-rasmiylashtirish sohasi vakillari ishtirok etdi. Panelning ko'p sohaliligi baholashning xolisligini ta'minladi. Mutaxassislar mexanizmni besh mezon — amalda joriy etilish imkoniyati, byudjet talabining pastligi, kutilayotgan iqtisodiy samara, miqyoslanuvchanligi va barqarorligi bo'yicha besh balli shkalada baholadi. Har bir mezon bo'yicha o'rtacha qiymat hisoblanib, natijalar 3-jadvalda keltirilgan (3-jadval).

3-jadval

Mexanizmni ekspert baholash natijalari

Baholash mezon	O'rtacha ball (5 balli)
Mexanizmning amalda joriy etilish imkoniyati	3,67
Byudjet talabining pastligi	4,00
Kutilayotgan iqtisodiy samara	4,22
Miqyoslanish (kengaytiriluvchanlik)	3,22
Mexanizmning barqarorligi	4,00
Umumiy o'rtacha baho	3,82

3-jadvaldan ko'rinadiki, ekspertlar mexanizmni barcha mezonlar bo'yicha ijobiy baholagan: o'rtacha ballar 3,22 dan 4,22 gacha bo'lib, umumiy o'rtacha baho 3,82 ni tashkil etadi. Eng yuqori baho kutilayotgan iqtisodiy samaraga (4,22), shuningdek, byudjet talabining pastligi va barqarorligiga (har biri 4,00) berilgan;



bu mexanizmning kam moliyaviy resurs talab qilishi va sezilarli iqtisodiy samara berishi haqidagi xulosalarni tasdiqlaydi. Nisbatan past baho miqyoslanuvchanlik mezoniga (3,22) qo'yilgan, bu mexanizmni boshqa hududlarga kengaytirishda qo'shimcha shart-sharoit talab qilinishini ko'rsatadi. Barcha o'rtacha baholarning ijobiy zonada joylashgani ekspertlarning mexanizmni umuman ma'qullaganidan dalolat beradi.

Ekspertlar bahosining o'zaro izchilligini tekshirish uchun Kendall konkordatsiya koeffitsienti hisoblandi. (3.2)-formula asosida $S = 155$, $\Sigma T = 288$ qiymatlardan $W = 0,26$ olindi. Koeffitsientning ahamiyatliligi $\chi^2 = m(n-1)W$ orqali tekshirilib, $\chi^2 = 9,39$ ($df = 4$) qiymat hosil bo'ldi; bu 0,05 darajadagi kritik qiymat 9,49 ga deyarli teng ($p = 0,052$) bo'lib, 0,10 darajada ahamiyatlilik chegarasidan o'tadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada mustaqil turistga xizmat ko'rsatuvchi mikro provayderlarni rasmiylashtirish va ularni mavjud milliy raqamli platformaga integratsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqildi. Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllandi. Birinchidan, mustaqil turizmning formalizatsiya bo'shlig'i bitim xarajatlari, institutsional bo'shliq va axborot assimmetriyasidan kelib chiqadigan o'zini o'zi kuchaytiruvchi muammo bo'lib, uni faqat maxsus mexanizm — rasmiylashtirish xarajatini kamaytirish va uning evaziga aniq naf taklif qilish orqali uzish mumkin. Ikkinchidan, mexanizm besh toifadagi mikro provayderni qamrab oluvchi obyekt hamda soddalashtirilgan rasmiylashtirish, sifat verifikatsiyasi va platformaga modul sifatida ulanishdan iborat uch bosqichli ketma-ketlik sifatida shakllantirildi; muhim jihati — yangi platforma yaratmasdan, mavjud milliy platformadan foydalanish. Uchinchidan, provayderning sof nafi modeli uning ixtiyoriy rasmiylashtirishini asoslab, mexanizmni davlat, provayder va turist manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi o'zini o'zi qo'llab-quvvatlovchi tizimga aylantiradi. To'rtinchidan, mexanizm xalqaro tajriba bilan qiyoslash va to'qqiz nafar mutaxassis ishtirokidagi ekspert baholash orqali tasdiqlandi: barcha elementlar xalqaro amaliyotda isbotlangan, o'rtacha ekspert bahosi esa 3,82 ni tashkil etib, mexanizmning amaliy asosligini ko'rsatdi. Kelgusi tadqiqotlarda mexanizmni pilot tarzda joriy etish va uning amaliy natijalarini real ma'lumotlar asosida baholash istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Shuningdek, provayderning sof nafi (3.1)-modelini real ma'lumotlar asosida hisoblash, rasmiylashtirilgan provayderlar ulushi va ularning hududda qoldirgan qo'shimcha sof qiymatini empirik o'lchash mexanizmning samaradorligini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Umuman olganda, taklif etilgan mexanizm mustaqil turizmning formalizatsiya bo'shlig'ini bartaraf etishning nazariy asoslangan, xalqaro tajriba bilan tasdiqlangan va mahalliy sharoitga moslashtirilgan amaliy yechimini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Coase R.H. The Nature of the Firm // *Economica*. — 1937. — Vol. 4, No. 16. — P. 386–405.
2. Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting. — New York: Free Press, 1985. — 450 p.
3. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990. — 152 p.
4. Akerlof G.A. The Market for "Lemons": Quality Uncertainty and the Market Mechanism // *The Quarterly Journal of Economics*. — 1970. — Vol. 84, No. 3. — P. 488–500.
5. Buhalis D., Law R. Progress in Information Technology and Tourism Management // *Tourism Management*. — 2008. — Vol. 29, No. 4. — P. 609–623.
6. Zervas G., Proserpio D., Byers J.W. The Rise of the Sharing Economy: Estimating the Impact of Airbnb on the Hotel Industry // *Journal of Marketing Research*. — 2017. — Vol. 54, No. 5. — P. 687–705.
7. Bianchi C. Solo Holiday Travellers: Motivators and Drivers of Satisfaction and Dissatisfaction // *International Journal of Tourism Research*. — 2016. — Vol. 18, No. 2. — P. 197–208.
8. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari. — T.: Fan va texnologiya, 2016. — 184 b.
9. Navruz-Zoda B.N. Turistik hudud raqobatbardoshligi: monografiya. — Buxoro, 2017. — 150 b.
10. OECD. OECD Tourism Trends and Policies 2024. — Paris: OECD Publishing, 2024. — 353 p.
11. Ibragimov N.S. Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari: monografiya. — Buxoro: Durdona, 2020. — 204 b.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100